

## GLOBALASHUV JARAYONIDA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH MASALAARI

**O'roqova Laylo Bekmirzayevna**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Ilmiy raxbar: O.Eshmuradov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi globallashuv jarayonida axborot texnologiyalarining ham tezkor jadallashuvi va ta'limning intensiv usullari hamda maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologning axborot texnologiyalaridan qay darajada foydalanish zaruriyati hamda buning ijobiy yutuqlari haqida yoritilgan. Ta'lim tashkilotlarida ishning oson borishi hamda ortiqcha qog'ozbozlikdan qutulishning chorasini bo'lgan axborot texnologiyalari inson faoliyatida qulaylik yaratdi. Bugungi kunda nafaqat psixolog faoliyatida buni tadbiiq etish balki har bir sohada axborot texnologiyasi qulayligidan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasi va talabidir.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, ta'limning intensivligi, zamonaviy texnologiyalar, psixologik faoliyat mazmuni, kasbiy kompetentlik.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar barcha sohalar qatori psixologiya sohasini ham chetlab o'tayotgani yoq. Bu islohotlar tub negizida xalqimizni psixologik savodxonligini oshirish, odamlar ichida psixologik xizmatni keng yo'lga qoyish va psixologik xizmatni zamonaviy korinishlarini ishlab chiqishdek reja va maqsadlar ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasalari deb ataladi) o'quvchilarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. Shavkat Mirziyoyevning "Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Quyidagilar respublikada psixologik xizmat ko'rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilanishi mumkin:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan yangilanish, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va

texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda psixologik xizmatlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- yoshlar tarbiyasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, shaxsning ma'naviy kamol topishida psixologik qo'llab-quvvatlash, yoshlarning mustaqil ongli kasb tanlashi va o'zining shaxsiy kasbiy rejalarini shakllantirishga sharoitlarni yaratishga psixologik ko'maklashish;

- iqtidorli yoshlar salohiyatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish, ularning bilish faoliyati va qiziqishlarini boyitish, dunyoni idrok etishning universal usullarini shakllantirish uchun psixologik yordam tizimini yaratish asosida ularni psixologik qo'llab-quvvatlash;

- aholiga psixologik xizmatning talab qilinadigan darajasi va sifatini ta'minlovchi me'yoriy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish, jumladan, onlayn psixologik xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

- aholi baxtlilik darajasi, sog'liqni saqlash, xususan, mental salomatlik, stressdan himoyalaniish yo'nalishidagi tadqiqotlarni amalga oshirish;

- favqulodda holatlar sharoitida psixologik xizmat ko'rsatish, hayot faoliyatida og'ir psixologik holatlarga tushib qolgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan trening-reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- bolalarning maktabgacha bo'lgan davri rivojlanishi, idrok, ong va xulq-atvor, kognitiv va ijtimoiy psixologiya sohasidagi ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ommalashtirish;

- psixologik ma'rifat va maslahat berish faoliyatini tizimli tashkil etish, uning uzluksiz metodik ta'minotini yaratish;

- tibbiy va klinik psixologiya, psixolingvistika, psixogenetika, boshqaruv psixologiyasi, savdo psixologiyasi, gerontopsixologiya, kross-madaniy psixologiya, mehnat psixologiyasi, tashkiliy psixologiya kabi dolzarb yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish;

- psixologiya sohasida zamonaviy o'quv, ilmiy va ommabop adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish va ommalashtirish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish;

- yosh psixologiyasi, psixofiziologiya, tibbiy psixologiya, psixoterapiya, patopsixologiya, differensial psixologiya, pedagogik psixologiya, psixodiagnostika, genetik psixologiya kabi sohalarda fundamental, amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- sohada ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini ta'minlash, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy maktablarni shakllantirish va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

- psixologiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Hozirgi zamon talabi har sohada va har faoliyatda tezlik va mukammallikdir. Inson faoliyatida axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi bu uning ishini osonlashtirdi va mukammallikni, ishonchlilikni ta'minlab berdi. Inson faoliyatda ba'zan xatoliklarga yo'l qoyishi mumkin lekin kompyuter, texnika adashmaydi. Har qanday sohadagi qulayliklarni misol uchun hisoblash, axborot almashinuv, ma'lumotning tezligi va ortiqcha qog'ozbozlikning kamayishini axborot texnologilari yutuqlariga misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Hozirda insonning muhim ehtiyojlariga xizmat qiluvchi kasbiy sohalarni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Masalan meditsina elektron uskunalarsiz diognostikada qiynaladi, zamonaviy diagnostik apparatlar kompyuterlar orqali tog'ri va aniq tashxisga ega bo'lish yoki fizioterapevtik texnikalardan keng ko'lamda foydalanish bu tibbiyotda ham qator qulayliklarni vujudga kelishini ta'minlab berdi. Iqtisodiyotdagi hisoblash jarayonini va excel dasturini boshqa offis va korxonada ishlarida word kabi dasturlar qulayliklarini alohida takidlash lozim. Bundan tashqari ta'lim sohasini ham elektronlashtirish yangi o'qitish usullarini loyihalash hozirgi kunda ham o'zimiz foydalanayotgan hems dasturi va maktablardagi kundalik com yoki oliy ta'lim muassasalaridagi zoom platformasi bularning barchasi fan va texnika yutug'iga yaqqol misoldir. Shunday ekan asta sekin kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanayotgan axborot texnologilarini chuqur anglashimiz va o'z hayotimizga va kasbiy sohamamizga chuqurroq tadbiiq etmog'imiz lozimdir. Hozirgi kunda maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari balki barcha ta'lim tashkilotlarida psixolog faoliyati murakkab va ma'suliyatlidir. Zamonaviy maktab psixologi qator vazifalarni bajaradi, maktabda o'quvchilar royxatini shakllantirish va ularning oilaviy ahvoli haqida ma'lumotga ega bo'lish va zimmasida sinflardagi o'quvchilar psixologiyasini diognostika qilish va shu o'quvchilarga ma'sul o'qituvchilar va o'quvchilarning ota onasi va oilasi bilan ishlash. Bundan tashqari xulqi og'ishgan o'quvchilar bilan deviant xulqqa ega bo'lgan bolalar bilan alohida korreksion ishlarni olib borish. Ayni paytda ta'lim jarayonida psixologik xizmatga ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Sababi, pandemiya davrida insonlarda ruhiy zo'riqish, stress holatlari, qo'rquv, internet va gatjetlarga tobelik kuchaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida psixologlar faoliyatini rivojlantirish lozim bo'ladi. Maktablarda psixologik xizmatni samarali amalga oshirish o'quvchilarni kelgusida ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi. Ayniqsa o'smirlar va o'spirinlarda bo'ladigan jismoniy va fiziologik o'zgarishlar ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. O'quvchilar o'zlari buni anglab yetishga qiynaladilar . maktab psixologi deganda barchamizning ko'z

o'ngimizga tor xona xona va ko'p hujjatlar bilan tolib toshgan ish stoli va qo'lida to'p to'p javob varaqalari bo'lgan kasb keladi. Lekin bu holatni o'zgartirish ustida ko'p islohotlar davr talabidir. O'quvchilardan olinadigan testlar yoki so'rovnomalar elektron shaklda olinganda uni hisoblash ya'ni miqdor tahlilini chiqarish osonlashadi. Miqdor tahlil tog'ri va aniq chiqarilsa psixologga uni sifat tahlilini bayon etish qoladi. Yoki yangi testlar tuzishda va loyihalar ustida ishlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish bu ancha qisqa va samarali yo'ldir. Global rivojlanayotgan davrda o'quvchi yoshlarni ruhiy salomatligini asrash davlat va jamiyatning muhim vazifalarimizdan biridir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumiy o'rta ta'limda psixologik xizmatni samaradoligini oshirish uchun ularni texnik jihozlar bilan ta'minlash va undan foydalanish ko'nikmasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ish jarayonida'' ikki varaqdan qog'oz olinglar'' degan jumlaning o'zgartirish ustida ishlash lozim.ya'ni psixolog o'quvchilardan test yoki so'rovnoma olish uchun 30 yoki 40 list narsa chiqarishi zarur emas balki kompyuterlarga shu materialni joylashtirib shuni belgilang deyish kerak holos. Bunda masalaning ikkinchi tarfi ham bor ya'ni hamma korreksion va diognostik ishlar ham kompyuterda bajarilmaydi ularning faqatgina amaliy holda olinganda tahlili chgiquadigan turlari ham mavjud. Shunchaki zaruriyat tug'ulganda talab etilgan sharoit yaratilsa faoliyat tez va samarador bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda davr talabiga xos va mos ravishda zamon bilan hamnafas harakatlanish har bir kasb uchun muhim masaladir. Bu masalalar yechimi ustida loyihalar qilish va ularni takomillashtirish har bir kasb egasidan katta bilim va mehnatni talab qiladi. Talab darajasidagi faoliyat uchun kadrlardan zamon bilan hamnafaslik hamda yahshigina axborot texnologilayarini ishlata olish haqida bilim, ko'nikma, malaka talab qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydanala olgan uni o'z kasbi sohasida qo'llay olgan mutaxasis albatta tezlikda kasbiy yutuqlarga erishadi. Sababi hozir tezlik asri globallashuv hamma soha, tarmoq va faoliyat bevosita va bilvosita axborot texnologiyalariga bog'liq holda amalga oshadi. Hamma zamonning o'z talabi bo'lgani singari hozirgi asrning hozirgi zamonning o'z talabi mavjud bu axborot texnologiyalaridan foydalana olish eletron qurilmalarni yahshi tushunish va o'z navbatida kiber havfsizlikdan ogoh bo'lishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STEROTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
2. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI

- NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
3. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. *Gospodarka i Innovacje.*, 20, 49-51.
4. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 1318-1323.
5. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 143-149.
6. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
7. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
8. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.
9. Эшмуратов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмуратов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.
10. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
11. Эшмуратов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
12. Эшмуратов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." *ЎзМУ хабарлари*” Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали (2019): 162-164

13. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

14.Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>

15.Eshmurodov, O., & O'roqova, L. (2024). МАКТАВЛАРДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>

16.Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. . (2024). КИЧИК МАКТАВ YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ О'РНИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 169-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9840>

